

**MILODIY VIII ASRGACHA BO'LGAN DAVRLARDA TURKISTON
O'LKASI XALQLARIDA MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANISHI
VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATGAN OMILLAR**

Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich

O'zbekiston Respublikasi IIV MTO 'M katta mutaxassis-metodist

bahodir.burxanov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Turkiston o'lkasida milodiy VIII asrgacha bo'lgan davrlarda yaratilgan qadimiy yozma manbalar va yashab o'tgan tarixiy shaxslar haqida aytilgan rivoyatlar, afsonalar va tarixiy-adabiy qo'lyozmalar o'sha davr xalqlarida mutolaa madaniyatini shakllanishi va rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri to'g'risida fikrmulohazalar bildirilgan.

Tayanch so'zlar: kitob, kutubxona, kitob mutolaasi, qadimgi yozuv, tarix.

**FACTORS INFLUENCING THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF
THE READING CULTURE OF THE PEOPLES OF THE TURKESTAN
REGION IN THE PERIOD UP TO THE VIII CENTURY AD**

ABSTRACT

The article examines the influence of ancient written sources and legends, legends and cultural and historical works about epochal personalities who lived before the VIII century AD on the formation and development of the reading culture of the peoples of the Turkestan region.

Keywords: book, library, reading books, ancient writing, history.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoev "Yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim" deb ta'kidlaydi [1]. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu-tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona-Vatani va xalqiga muhabbat, sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan [2].

Kitob ta'limotining tarqalishi Turon-Turkiston hududida juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Kitob mutolaasi har bir davrda jamiyat ma'naviyatini, madaniyatini taraqqiy ettirishda asosiy vositalardan biri bo'lib kelgan. O'rta asrlarda mutolaa

madaniyatini tarkib toptirish masalalari buyuk mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan. Xususan, XX asr boshlarida yashab ijod etgan ma'rifatparvar ziyoli Abdulla Avloniy, "...yoshlikdan boshlanib zehin va idrokimizni quvvatlandurmak uchun aziz umrimizni o'yin-kulgi, safsata, moloya'ni kabi behuda so'zlar bilan o'tkarmay, har xil kitob, gazeta va jurnallarni o'qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmak lozimdur" deydi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'tmishda ilk kitoblarning paydo bo'lish tarixi yozuvning yaratilishi va shakllanishi jarayoni bilan uzviy bog'liq. Olib yurish mumkin bo'lgan materiallarga ramzlar yozishga birinchi urinishlar miloddan avvalgi 3500-yillarda Mesopotamiyaning janubida yashagan Shumer xalqi deb nomlanuvchi qadimgi odamlar guruhi tomonidan bitilgan. Shumer xalqi "mixxat" alifbosini (logofonetik, undosh alfavit va hese belgilaridan iborat tizim) ixtiro qildilar, ularning ramzlari "kalamus" deb nomlangan uchburchak shaklidagi Stilus yordamida loy tabletkalariga o'yib yozilgan va keyin quritilgan yoki pechda pishirilgan, shunda ular yozuvlarning iloji boricha uzoqroq turishini ta'minlaganlar. Shumerlar mixxat yozuvidan foydalangan birinchi odamlar bo'lgan deb ishoniladi va dunyodagi eng qadimgi yozuv tizimi sifatida e'tirof etiladi [4].

Yozuvning tuzilish xususiyatlari (belgilar tizimi, ularning joylashish tartibi), yozuv materiali va qurolining o'ziga xos tomoni va boshqa ma'lum darajada kitob tuzilishini ham belgilab berdi. Qadimgi Misr, Rim, Yunoniston va O'rta Osiyoda kishilar tosh, palma daraxti barglari, sopol va boshqa materiallarga yozib fikr almashganlar. Har bir kitob o'nlab shunday materiallardan tayyorlangan plitalardan iborat bo'lib, og'irligi bir necha kilogramm bo'lgan. Yozuv materiali sifatida papirus o'simligi ishlatalishi (miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklarda) bilan o'rama kitoblar paydo bo'ldi. Bunday kitoblarning uzunligi o'rtacha 10 m atrofida bo'lib, ingichka, yumaloq tayoqlarga o'ralgan va maxsus charm yoki yog'och g'iloflarda saqlangan [5].

Yozuvlarning paydo bo'lishi kitoblarni, kitoblar esa kutubxonachilik faoliyatini vujudga kelishiga sabab bo'ldi. O'sha davrlarda tashkil etilgan kutubxonalar tufayligina qadimgi qo'lyozmalar, bitiklar, kitoblar, tarixiy shaxslar haqidagi manbalar bizgacha yetib kelgan.

Ilk kutubxonalar miloddan avvalgi 2 ming yillikda vujudga kelib, yozuvlar sopol bitiklarda yozilgan edi. Miloddan avvalgi VII asr o'rtalarida sharqdagi ko'p saroylarda qadimgi Misr va Rim ibodatxonalari qoshida kutubxonalar vujudga keldi. Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashhuri Aleksandriya kutubxonasıdir [6].

G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlarda monastir va ibodatxonalar qoshida kutubxonalar tashkil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbekiston hududida miloddan avvalgi 1 ming yillikning so‘ngi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo‘lgan. Bular ilk kutubxonalar bo‘lib, kutub – arabcha “kitoblar”, xona – forscha «uy», ya’ni kitob va hujjatlar saqlanadigan joy demakdir [7].

Hozirgi Turon-Turkiston hududida yozuv eramizdan avvalgi yillarda paydo bo‘lgan va keng qo‘llanilgan. Shu bilan birga sharq qo‘lyozma asarlarini saqlovchi kutubxonalar arablar istelosidan ancha oldin vujudga kelgan bo‘lib, ularning paydo bo‘lishi va faoliyati ilk qadimgi davlatlarning vujudga kelishi hamda iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan hamda kutubxonalarda, muzeylarda saqlanib kelingan miloddan avvalgi davrlarga tegishli juda ko‘plab qo‘lyozma yodgorliklarni misol keltirish mumkin.

Ana shunday qadimiy meroslarimizdan biri bo‘lgan bundan qarib uch ming yil muqaddam hozirgi Xorazm hududida vujudga kelgan qadimgi Turon va Fors xalqlarining zardushtiylik dini kitobi “Avesto”ni aytish mumkin [8]. Keyinchalik ushbu din ta’limoti Eron, Kavkaz va Hindistonga tarqalgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” deb atalib, Zardusht vafotidan so‘ng alohida kitob holiga keltirilgan va o‘sha davr xalqi kitobda yozilgan “ezgu so‘z, ezgu fikr va ezgu amal” g‘oyalariga e’tiqod etib, hayot kechirganliklari bir qancha tarixiy manbalarda keltirilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston hududida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan yozma yodgorliklarning ilk namunalari ostrakonlar — eramizdan oldingi II asrga taalluqli sopol idishlarning bo‘laklaridagi yozuv qoldiqlaridir. Bular arxeoglarning (qadimshunoslar) urush yillari olib borgan qazilmalari vaqtida topilgan va ular “Parfiyaning o‘z tub yerlaridagi mahalliy yozma tarixiy manbalar va ayni vaqtida parfiya tili va yozuviga doir eng qadimgi yodgorliklardir” [9].

Xorazmshohlarning Tuproqqa’adagi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) qasrlariga taalluqli inshootlarning qazib olingan namunalari, ko‘p sonli uy anjomlari va san’at ashyolari bilan bir qatorda saroy arxivi hujjatlarida eramizning III asriga tegishli ma’muriy-xo‘jalik mazmunidagi 80 ga yaqin matn borligi aniqlandi. Bu hujjatlar teri va yog‘ochga tush bilan chiroyli husnixatda bitilgan va akademik S.P. Tolstov ko‘rsatib o‘tganidek, til jihatidan “ular so‘g’d tiliga yaqin hamda X-XII asrlarda aniqlangan xorazmliklar tilining bevosita o‘tmishdoshi hisoblanadi” [1].

S.P. Tolstovning Xorazmda olib borgan juda muhim arxeologik ishlari bu o‘lkaning eramizdan ilgarigi to‘rt minginchi va uch minginchi yillardayoq qadimgi madaniyat markazlari Sharq va Shimol o‘rtasida vositachilik rolini o‘ynaganini ko‘rsatadi. Arab istilosи arafasida esa Xorazm irrigatsiya, qurilish va savdoda rivoj topgan mamlakat edi [10], deb bergen ma’lumotlari diqqatga sazovardir.

Yuqorida tilga olingan zardo‘shtiylik dinining muqaddas kitoblaridan Avestoning qadimgi nusxasi ham 12 ming qora mol terisiga bitilgan.

“Avesto” haqida buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy o‘zining “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli kitobida quyidagilarni yozgan: “Podshoh Doro ibn Doro xazinasida 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nus’ha bor edi. Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun Abistonning 3/5 qismi yo‘qolib ketdi” [11]. Bu o‘rinda shuni ham ta’kidlash zarurki, Aliksandr Makedonskiy “Avesto”ning astronomiya, falsafa va tibbiyotga doir qismlarini yunon tiliga tarjima qildirgan.

Aleksandr Makedonskiyning hukumronligi tugagach, miloddan avvalgi 250-yilda Arshohiylar davrida “Avesto” yana tiklana boshlangan va yangi matnlar bilan to‘ldirilgan. Milodning III-asrida esa sosoñilar podshosi Shopur davrida to‘la kitob holiga keltirilgan [12].

Shuningdek, miloddan avvalgi V-III-asrlarda yashagan To‘maris, Shiroq, Spitamen haqida aytilgan rivoyatlar, afsonalar va halq og‘zaki ijodiga oid qo‘lyozmalar, tarixiy-adabiy kitoblar Turon-Turkiston hududi boy tarixi va shonli o‘tmishga ega ekanligini ham ko‘rsatmoqda.

Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” (mil. av. 5-a.) asarida yozilishicha, Turon xalqlarining axomaniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur sarkarda malika To‘maris massagetlar podshosining xotini bo‘lib, u erining vafotidan so‘ng davlatni boshqargan. Massagetlar bu paytda Amudaryo (Araks) bo‘ylari va Qizilqumda yashashgan [13].

To‘marisning jasorati va harbiy siyosiy faoliyati to‘g‘risida xalq dostonlari yaratildi, jangnoma va rivoyatlar to‘qildi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan Hodi Zarifov yozib olgan “Oysuluv” dostoni, yozuvchi Mirkarim Osimning “To‘maris” qissasi va boshqa asarlarni misol keltirsh mumkin.

Miloddan avvalgi VI-asrda yashab o‘tgan xalq qahramoni Shiroq — Turon xalqlarining axomaniylar podshosi Doro I bosqiniga qarshi kurashib, o‘zining ma’naviy jasoratini namoyon etadi. Bu tarixiy voqeani oradan 800 yil o‘tgach, Yunon tarixchisi Polienning “Harbiy hiylalar” nomli sakkiz kitobida o‘z davrining mohir sarkardalari va ularning jangovar mahoratlari haqida boy ma’lumotlar berilgan. Vatandoshimiz Shiroqning afsonaviy qahramonligi haqidagi rivoyatlar ham Polienning mazkur asari orqali bizgacha yetib kelgan [14].

Shiroqning jasorati haqida turkiy xalqlar o‘rtasida jangnoma va rivoyatlar yaratilgan. Bu rivoyatlar “Shiroq” nomi bilan mashhur. U turkiy xalqlarga qo‘shni boshqa hududlardagi xalq og‘zaki ijodiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Yozuvchi Mirkarim Osim “Shiroq” qissasi va shoir Usmon Qo‘chqorning “Shiroq” dostonida Shiroq jasorati ulug‘langan. Shiroq milliy qahramon sifatida O‘zbekiston tarixiga oid turli kitoblarda o‘z munosib o‘rnini egallagan [15].

Miloddan avvalgi IV-III-asrlarda, O'rta Osiyo xalqlarining mard va jasur o'g'lonlaridan yana bir sarkarda Spitamendir. Spitamenning nomi asrlar osha yashab mardlik va jasorat timsoli sifatida avlodlarga ruhiy madad berib kelgan. Spitamen haqida ko'plab badiiy tasviriy asarlar yaratilgan. Jumladan, V.V.Yanning "Qo'rg'on uzra olovlar", Ya. Ilyosovning "Sug'diyona", M. Qorievning "Sug'd qoploni" romanlari yozilgan [16].

Turon-Turkiston hududida urxun yozuvi mavjud bo'lib, u asosan sharqiy Turkiston, Yettisuv, g'arbiy Pomir shaharlarida, Talas vodiysi va boshqa joylarda qal'a tomlaridagi yozuvlarda saqlanib qolgan. Bu vaqtida qadimgi turkiy yozuvning bir turi bo'lgan uyg'ur yozuvi ham mavjud edi. Arablar istilosining dastlabki yillarida arab yozuvi bilan bir qatorda Turon o'lkasi hukmdorlarining idora ishlarida uyg'ur yozuvi ham qo'llanilgan. Shunday qilib, O'rta Osiyoning hozirgi hududida so'g'd, xorazm, urxun, uyg'ur va boshqa yozuvlarning mavjudligi bu hududlarda o'sha davrlarda madaniyat ancha yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo xalqlarining yozuvi ancha oldin rivoj topganligi to'g'risidagi yana bir qimmatli ma'lumotni VII asrda Xitoy olimi va sayyohi Syuan-Szyan o'zining Markaziy Osiyo orqali Hindistonga qilgan sayohatida Sog'dda va Xorazmda ana shu vaqtida o'ziga xos rasmiy taqvim (kalender) bo'lganligidan xabar topgan [17].

Beruniy O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi natijasida madaniyatimiz durdonalari yo'qotilib yuborilgani haqida achinib gapiradi: "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi" [18].

Alloma yana boshqa joyda: "Keyin Qutayba ibn Muslim al-Baholiy xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarni o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar" [1], deb aytadi.

Jamiyatda ro'y bergan tub o'zgarishlar, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy va diniy tafakkurining evolyusiyasi, ilmiy bilimlar va badiiy adabiyotga qiziqishning kuchayishi o'sha davrning yagona va noyob universal yozma axborot tarqatuvchisi sanalgan qo'lyozma kitoblarga bo'lgan ehtiyoj va talabni kuchaytirdi. Kitobning ijtimoiy-madaniy va intellektual rivojlanishidagi tutgan o'rni ham o'zgarib bordi. Asosan diniy ibodat maqsadlariga xizmat qilgan qadimgi va ilk O'rta asrlar kitobi (faqat ibodatxonalariga saqlangan va tor doirada foydalanilgan Avesto, buddizm adabiyoti majmualari, moniychilarning yetti muqaddas kitobi)dan farqli o'laroq, bu davrda kitobning ijtimoiy muloqot usuli va ommaviy aloqa, ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatidagi ahamiyati ortib bordi [19].

XULOSA

Yuqorida keltirilgan yozma manbalarga asoslanib, xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Turon-Turkiston hududi Arab xalifaligi tomonidan istilo etilishiga qadar u yerda ko‘p nodir kitoblar, qo‘lyozmalar saqlangan kutubxonalar bo‘lgan. Albatta, ushbu yozma manbalar o‘scha davr xalqlarining mutolaa madaniyatini shakllanishi va yuksalishida shubxasiz o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Bosqinchilik urushlari natijasida mahalliy moddiy va ma’naviy madaniyatiga katta zarar yetgan. Biroq shuni ham ta’kidlash kerakki, islom madaniyatini kirib kelishi bilan birga, tub xalqlar turmushining barcha sohalarida tarixiy o‘zgarishlarga ham sabab bo‘ldi.

Milodiy VIII asrgacha bo‘lgan davrlarda yashagan ajdodlarimizning ko‘rsatgan jasoratlari, ular haqida aytilgan rivoyatlar, afsonalar va halq og‘zaki ijodiga oid tarixiy-adabiy kitoblar ma’naviy merosimizning ajralmas qismidir. Ular haqida yozilgan asarlar bugungi kunda ham kitobxonlarning ma’naviy tafakkurini boyitishda, Vatanparvarlik va milliy g‘urur his-tuyg‘ularining kuchayshida muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Китоб инсониятнинг қалб гавҳари, тафаккур хазинасидур // <https://uza.uz/uz/posts/kitob-insoniyatning-alb-gav-ari-tafakkur-khazinasidur-04-04-2020>
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 14.12.2020 йилдаги 781-сон
3. Абдулвохид Абдулазизов. Мутолаа маданиятини шакллантиришнинг социологик тахлили. Тошкент-2016 7-бет 176 б.
4. The evolution of the book. URL: <https://sfbook.com/the-evolution-of-the-book.htm>
5. С.Юлдашева. Китоб - кўнгил чироғи // <https://cyberleninka.ru › kitob-k-ngil-chiro-i>
6. Г.Э. Нуркулова. Кутубхоначиликнинг тараққиёт босқичлари // Academic Research in Educational Sciences. URL: https://ares.uz/storage/app/media/2022/Vol_3_No_1/1167-1174.pdf
7. Кутубхона – нурхона. Ўрта Осиёning қадимги кутубхоналари. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2004 // <https://shosh.uz/kutubhona-nurhona-orta-osiyoning-qadimgi-kutubhonalar/>
8. Тиллаева, М. Б. Собственные имена в «Авесте» / М. Б. Тиллаева, С. Б. Курбанова. — Текст : непосредственный // Актуальные проблемы филологии : материалы II Междунар. науч. конф. (г. Краснодар, февраль 2016 г.). — Краснодар : Новация, 2016. — С. 117-119. — URL: <https://moluch.ru/conf/phil/archive/177/9640/>
9. А.И. Кормилисин, М.М. Расулов, С. Х. Давлатов. KUTUBXONASHUNOSLIK ISHINING NAZARIYASI VA TARIXI. TOSHKENT — 2003 80 бет. 5-б.

10. Абу Райхон Беруний. Ўтмиш халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. 1. Тошкент, 1968. 16-Б.
11. Абу Райхон Беруний. Ўтмиш халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. 1. Тошкент, 1968. 26-Б.
12. У.Т. Жўраев, Й.С. Сайджонов. Дунё динлари тарихи ўқув-қўлланма. Т-2001
13. Геродот, История (в девяти книгах), Л., 1972; Ўзбекистон тарихи — давлат ва жамият тараққиёти, 1қисм, Тўмарис, 2000. // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tomaris-uz/>
14. Ё. Розимова. Амир Темур ҳарбий стратегиясида ҳийлакорлик усуллари // [https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-161-2021\(1-bolim\).pdf](https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-161-2021(1-bolim).pdf)
15. А.д.: Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамияг тараққиёти, 1-қисм, Т., 2000.
16. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/spitamen-uz/>
17. А.И. Кормилисин, М.М. Расулов, С.Х. Давлатов. KUTUBXONASHUNOSLIK ISHINING NAZARIYASI VA TARIXI. TOSHKENT — 2003 5-Б.
18. Абу Райхон Беруний. Ўтмиш халқлардан қолган ёдгорликлар. Т. 1. Тошкент, 1968. 6,26,72-Б..
19. Эркин Охунжонов. Ўрта асрларда китобат маданияти: ривожланиш тамойиллари ва хусусиятлари «Ўзбекистонда китобат маданияти тарихи» китобидан олинди. INFOLIB, №1, 2018 <https://einfolib.uz/index.php/2020/09/28/urta-asrlarda-kitobat-madaniyati-rivojlanish-tamojillari-va-hususiyatlari-uzbekistonda-kitobat-madaniyati-tarihi-kitobidan-olindi/>